

## “RAMAYANA” EPOSIDA OBRAZLAR TIMSOLI

Saidova Mahzuna Farhod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11120072>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi hindlarning mashhur eposi hisoblanmish “Ramayana” eposi haqida, shu bilan birga asarda ishtirok etgan har bir obrazlar, qahramonlar haqida hamda ularga xos xususiyatlar, ularning ta`rifi va tavsifi haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Ramayana, epos, obraz, qahramon, Rama, Sita, Ravana.

### IMAGES IN THE EPIC "RAMAYANA".

**Abstract.** This article talks about the epic “Ramayana”, which is a famous ancient Indian epic, and at the same time about each of the characters and characters involved in the work and their characteristics, their definition and description.

**Keywords:** Ramayana, epic, character, hero, Rama, Sita, Ravana.

### ОБРАЗЫ В ЭПОСЕ «РАМАЯНА».

**Аннотация.** В данной статье рассказывается об эпосе “Рамаяна”, который является знаменитым древнеиндийским эпосом, и одновременно о каждом из действующих лиц и персонажей, задействованных в произведении, и их характеристиках, их определении и описании.

**Ключевые слова:** Рамаяна, эпос, персонаж, герой, Рама, Сита, Равана.

*Tabiiyki, epos o`zi nima degan savol yuzaga keladi.*

Epos – yunoncha so`z bo`lib, hikoya degan ma`noni ifodalaydi. Eposda, asosan, xalqalarning o`tmishi, muayyan davrda sodir bo`lgan voqealar hikoyachi tilidan bayon qilinadi.

Uning asosiy belgilaridan biri ko`p holatlarda nasr yo`nalishida yozilishidir. Eposda so`z orqali kitobxon tasavvurida real hayotga to`g`ri keladigan badiiy voqelik yaratiladi.

*Qadimgi ertaklar, miflar va afsonalarning... asosiy mag`zini chuqurroq tushuntirishingizni istardim. Bularning asosiy g`oyasi qadimgi davrlardagi mehnat kishilarining yukini yengillashtirishga, ularning ish unumini oshirishlariga, to`rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so`z kuchi – “avrash”, “afsun” yo`li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo`lgan hodisalariga ta`sir etishlariga qaratilgan.<sup>1</sup>*

“Ramayana” haqida, undagi obrazlar haqida so`z yuritishdan avval qisqacha uning syujeti bilan tanishib chiqsak.

Asar Kushalaning podshosi Dasharathaning befarzand ekanligi bilan boshlanadi. U frazand tilab xudolarga iltijo qiladi. Najotkor tangri Vishnu ilohiy ne`mat olib Dasharathaga beradi.

Podsho xotinlariga ilohiy ne`matni yediradi. Shundan so`ng podshoning birinchi xotini Kavshaliya to`ng`ich o`g`il - Ramani dunyoga keltiradi, ikkinchi xotini Kaykeyi - Bhoratani, uchinchi xotini esa egizak farzandlarni - Lakshmana va Shatrughnani dunyoga keltiradi. Bolalar ulg`ayadi. Lakshmana - Ramaga, Shatrughna esa Bhorataga mehr qo`yishadi. Donishmand Vishramitra Dasharathadan o`rmondagi maskanini rokshaslardan qo`riqlash maqsadida Ramani

<sup>1</sup> M.Gorkiy. Adabiyot haqida. O`zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T.,1962, 265-bet.

olib ketishni soʻraydi. Lakshmana ham ularga qoʻshilib ketadi. Rama oʻrmondagi rokshaslarni gumdon qiladi. Shundan soʻng Vishvamitra Rama bilan Lakshmanani Mithila mamlakatiga taklif etadi. U yerda podsho Jonak katta qurbonlik qilayotgan edi. U ham tirnoqqa zor edi. Jonak qurbonlikka mos mehrob tiklash maqsadida muqaddas omoch bilan yer haydardi, nogahon egat ichidan bir qiz chiqib keladi. Jonak uni oʻziga farzand qilib oladi va unga Sita, yaʼni egat deb ism qoʻyadi. Malika ulgʻayadi. Jonak butun dunyoga “Kimki Shivaning sehrli kamalagiga tor bogʻlay olsa, Sitani oʻshanga beraman” - deb jar soldiradi. Rama bu ishni uddalaydi. Jonak Sitani Ramaning qalligʻi deb eʼlon qiladi. Podsho Dasharatha qarib kuch-quvvatdan qolib borardi. U taxt vorisi etib Ramani qoldirmoqchi boʻladi. Lekin buni eshitgan Kaykeyni oqshochi Monthra yoʻldan uradi va fitna qilib, Bhoratani taxtga chiqaradi. Ramani esa 14 yil quvgʻinda yurishga buyuradi.

Rama oʻrmonda yashay boshlaydi. Bu orada Dasharatha vafot etadi. Kaykeyi Bhorataga qanday qilib uni taxtga chiqargani haqida bor haqiqatni aytib beradi. Bhorata buni eshitib, onasini koyiydi va Ramani izlab ketadi. Ramani topadi, undan yolvorib uyga qaytishini va taxtga oʻtirishini soʻraydi, lekin Rama bunga rozi boʻlmaydi va oʻrmonda qoladi. Oradan vaqt oʻtib rokshaslar hukmdori Ravana va Rama oʻrtasida ziddiyat paydo boʻladi. Ravana Sitani oʻgʻirlab ketadi. Rama maymunlar podshosi Sugriva yordamida Sitani qutqarib, oʻz yurtiga qaytadi. Bhorata podsholikni Ramaga topshiradi.

1. **Dasharatha** – Kushala podshohi, mohir ovchi, mehribon ota, rafiqasi Kaykeyi sababli Ramani 14 yil oʻrmonga surgun qilishga majbur boʻladi. Shunda ham Ramaga “Sen mening bu gapimga qarab oʻtirma, oʻgʻlim! Qoʻl-oyogʻimni bogʻlab meni zindonga tashla-yu, taxtga min, taxt seniki!” deb yolvoradi.

2. **Vishnu** – najotkor tangri, Dasharathaning toʻrt oʻgʻli timsolida tugʻiladigan boʻladi.

Dasharathani farzandli boʻlishi uchun ilohiy neʼmat keltirgan donishmand.

3. **Kovshalya** – Dasharathaning birinchi rafiqasi, xotinlarining kubrosi, Ramaning onasi.

4. **Kaykeyi** – Dasharathaning oʻrtancha, suyukli rafiqasi, Bhorataning onasi.

5. **Sumitra** – Dasharathaning kichik rafiqasi, Lakshmana va Shatrughnalarning onasi.

6. **Rama** – asarning bosh qahramoni, mard, jasur shahzoda. Unda Brihospati aqli-yu Indraning shavkati mujassam. Asar Ramaga bagʻishlangan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

7. **Bhorata** – mard, jasur shahzoda. Akasi Ramani uyga qaytarish uchun harakat qiladi va oxirida taxtni ham unga qaytaradi.

8. **Lakshmana** – kichik shahrodalardan biri. Ramaga judayam mehr qoʻygan, hatto u bilan surgunlikda yuradi.

9. **Jonak** – Mithila podshohi, Sitaning otasi.

10. **Sita** – Mithila malikasi, Jonakning qizi, Ramaning qayligʻi. Vafodor yor timsoli. Rama 14 yil surgun qilinganda agar sen bilan ketmasam oʻlganim shu deya turib oladi va Rama Sitani olib ketishga majbur boʻladi.

11. **Ravana** – Lanka orolining qiroli, shavkati butun 3 olamda – yazdonlar, devlar va odamlar orasida mashhuri jahon boʻlgan. Asarda Ravana Ramaning qayligʻi Sitani yoqtirib qoladi, lekin Sitadan rad javob olgach, dahshatli qiyofaga kirib, uni oʻgʻirlab ketadi. Eposda, asosan, Ravana yovuz qahramon sifatida tasvirlangan.

12. **Hanuman** – sharaf burchi timsoli. Shamol xudosining farzandi. Hanuman Ramaga Sitani topishda katta yordam beradi.

13. **Sugriva** – maymunlar podshosi, rokshaslar hukmdori otgan nayzadan yaralanadi. Sitaning qutqarilishida muhim rol o‘ynagan.

14. **Valadi Danu** – xudolar dushmani, iblislar, Danu farzandlari.

15. **Aditi** – o‘n ikki yazdonning, jumladan, ummon ma’budi Varuna, chaqmoq ma’budi Indra, quyosh ma’budi Suryalarning onasi. Asarda Ramaning onasi Kovshalya Aditiga tenglashtiriladi.

Bundan tashqari asarda bir qancha tog‘ nomlari ham keltirib o‘tilgan.

- Sahya
- Krishna
- Vindhya
- Astochal
- Gandham’adana – Gullarga boy tog‘ning nomi. Himolay tizmalaridan biri.

*“Ramayana” ham shunday mag‘zi chuqur, mazmuni real hayotdan olinib, mifik, fantastik shakllarda ifodalangan eng nodir asarlardan biridir. U, asrlar mobaynida bir necha marotaba tahrirlarga uchradi, lekin shunga qaramay u hind madaniyati tarixida eng qadimiy va tom ma’nodagi ilk badiiy adabiyot namunasi (“adikavya”), avtori esa (aytilishicha, Valmiki) birinchi shoir (“adikavi”) deb hisoblanadi. Unda vatanga muhabbat, sevgida sadoqat, yaxshilik foydasiga bahodirlik, harbdajasorat; to‘g‘ri so‘zlik, va‘daga vafo, adolat kuylanadi, zulm va zo‘ravonlik, xiyonat va riyokorlik, xudbinlik va bekorga qon to‘kishlik, falokatli ixtiloflar va halokatli urushlar qoralanadi, yomonlik ustidan albatta yaxshilik g‘alaba qiladi, adolat va tinchlik albatta tantana qiladi, degan fikr “isbot” etiladi. Unda sevishganlarni bir-biridan judo qilish, hajr azoblari hamda bevafoqlik iztiroblari ham juda katta o‘rin olgan bo‘lib, nihoyat darajada yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan.<sup>2</sup>*

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bu qadimiy asarning asrdan asrga, avloddan avlodga o‘tib kelishiga sabab undagi obrazlar, personajlar orasida ijobiy fazilatlar, ezgulik yo‘lidagi qahramonliklar, ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi namoyon etilgan.

Umuman olganda, asarning Ramaga bag‘ishlanishi, Rama va Sitaning bosh qahramon qilib keltirilishi hamda Ramaning asarda mard, jasur, salobatli yigit sifatida tasvirlanishi har bir kitobxonni befarq qoldirmaydi, ya’ni o‘ziga jalb qiladi. Qadimgi sanskrit tilida yozilgan ushbu asar Muhammad Ali Ahmedov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Epos xalq og‘zaki mahsulotlari bilan ham boyitilgan. Bundan tashqari, Sharq va G‘arb adabiyotida yaratilgan bir qancha asarlarda tarkibida ham shu asarning ta’siri seziladi.

## REFERENCES

1. Muhammad Ali Ahmedov tarjimasini. “Ramayana”. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1978. 172 b.
2. M.Gorkiy. Adabiyot haqida. O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T.,1962, 265-bet.
3. “Махабхарата”, “Рамайна”, “Художественная лит-ра”, Москва, 1974.
4. “Ramayana” poetikasining o‘zbekcha tarjimada talqini” (ruscha). Rossiya davlat kutubxonasi.

---

<sup>2</sup> [“Махабхарата”, “Рамайна”, “Художественная лит-ра”, Москва, 1974].

5. <https://uz.m.wikipedia.org>
6. <https://oefen.uz>
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi